

## O'ZBEKİSTONDA TİBBİY TURİZMNING HOLATI

**Turg'unboyeva Nuriza Erkin qizi  
Qo'qon Universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda tibbiy turizmning holati, obyektlari va uni rivojlantirish uchun qabul qilingan qarorlar va chora tadbirlar to'g'risida ma'lmotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Sanatoriya, klinika, sug'urta, diagnostika, stomotologiya, renoplastika, terapiya, tibbiyot texnologiyalari, atom energetikasi.

Odamlarning davolanish yoki sog'lomlashtirish maqsadida o'z davlatidan boshqa davlatga borishi tibbiy turizmni vujudga keltiradi. O'zbekiston nafaqat turizmi, bundan tashqari so'lim tabiat bilan turistlarni o'ziga jalb etadi. Davolanish uchun sanatoriyalar, sihatgohlar va klinikalar kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. O'zbekistonda tibbiy sug'urta xizmati yo'lga qo'yilmagan, aksincha aholi uchun bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Turistlarga o'z davlatidan sug'urta qilib kelinishi tavsiya etiladi.

**Dunyo tibbiy turizmi:** Jahon hamjamiyatida tibbiy turizmning ahamiyati ortib bormoqda. Stomotologiya, renoplastika, diagnostika va terapiya uchun insonlar turli davatlarga tashrif buyurishmoqda. Turkiya - 2018 yilda 500 mingdan ortiq chet elliklar turkiyaga davolanish uchun kelgan. Turkiya sog'liqni saqlash vazirining so'zlariga ko'ra 2023-yilgacha turizmdan olinadigon daromadni 5 barobarga ko'paytirishni, yiliga 1.5 million sayyohga tibbiy xizmat ko'rsatishni maqsad qilgan. Hindiston - tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha yetakchi o'rinni egallamoqda. Sababi xizmat ko'rsatish narxlari arzon va bugungi kunda hindistonlik shifokorlar butun dunyo bo'ylab o'zlarining tajribalari bilan tanilgan va dunyoning har bir burchagidagi shifoxonalarda etakchi o'rirlarni egallaydilar.

**O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatuvchchi klinikalar:** NANO MEDICAL CLINIC – Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari bilan jihozxlangan ushbu tibbiy markazda radionuklid tekshiruviga asoslangan yadro tibbiyoti va intervention radiologiya joriy qilingan. Bu turli endokrin va onkologik kasalliklarni aniqlash va davolashda katta samara beradi, bundan tashqari suvaq to'qimasining mineral zichligini aniqlashning diagnostik usullari muaffaqiyatli olib borilmoqda. Ushbu yo'naliishlar Atom energetikasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) nazoratida tashkil etilgan.

**Tibbiy turizm va sog'liqni saqlashga oid qaror va chora tadbirlar:** 1998-yilda qabul qilingan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturining eng muhim qoidalari va maqsadli vazifalari umuman muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani qayd etib o'tilsin. Tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi amalda to'liq qayta ko'rib chiqildi, respublikada sog'liqni saqlash tizimini barpo etishning prinsipial yangicha yondashuvlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil PF – 5611 farmoni.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Lex.uz
- 2azon.uz
- 3.treatmentabroad.net